ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

Folklorshunoslik

Abdumurod Tilavov

O‘zbek dostonlariga doir Turkiyadagi tadqiqotlar 147

Hulkar Aliqulova

Turkiy xalqlar folklorida olqish va qarg‘ishlarning qiyosiy tipologik tahlili 160

Ilhom Jumayev

“Qutadg‘u bilig” dostonida Kuntug‘di va O‘zg‘urmish munosabatlarining folklor motivlariga xos talqini 171

Norkulova Shaxnoza

“Boburnoma”da xalq og’zaki ijodi namunalari badiiy talqini 181

Dilorom To‘rayeva

Usmon Azim ijodida folklor namunalari va xalqona ohang **.....** 189

Mahkamova Dilafruz

“Bilga Xoqon” obrazining zamonaviy nasr va nazmda ifodalanishi .. 198

Rajabbayeva Ozoda

O‘zbek mifologiyasida “Irq bitik”ning qimmati 207

Abduraximova Nazokat

O‘zbek va turk xalqlarida nikoy to‘yi marosimi 216

Turobova Mohinur

O‘zbek laparlari va turk karshilikli manilari tadqiqi 224

“QUTADG‘U BILIG” DOSTONIDA KUNTUG‘DI VA O‘ZG‘URMISH MUNOSABATLARINING FOLKLOR MOTIVLARIGA XOS TALQINI

Ilhom Jumayev[1]

Abstrakt

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonidagi har bir qahramon o‘ziga yarasha ramziy mazmun kasb etadi. Ular o‘rtasidagi munosabatlar ham ma’lum bir g‘oyani aks ettirishga xizmat qiladi. Quyidagi maqolada ham Kuntug‘di va O‘zg‘urmish o‘rtasidagi shoh va zohidlik munosabati folklorga xos chizgilar asosida tahlil qilingan. O‘zbek adabiyotida zamon va makon tushunchalarini mujassamlashtirga didaktik asarlardan bir bo‘lgan bu doston globallashuv jarayonida ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan kamsonli manbalardan biri hisoblanadi. Dostonda qo‘llangan folklor motivlari bugungi kun shaxsinining shaxs sifatida yuksalishi yo‘lida o‘ziga xos o‘ringa ega hisoblanadi. Folklor namunalarining xalq orasida qo‘llanish chegarasi torayib borayotgan bir davrda, nafaqat, keng kitobxon balki, xos adabiyotchilar uchun ham bu asarni folklor jihatdan talqin qilish bugun o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig” dostoni, Kuntug‘di, O‘zg‘urmish, folklor, shoh va zohid, muammo, tugun, yechim.

Kirish

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida tasvirlangan obrazlar zamon tanlamaydigan, barcha davrlar adabiyotida uchratish mumkin bo‘lgan qahramonlardir. O‘zg‘urmish

[1] *Jumayev Ilhom* – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Termiz iqtisodiyot va servis universiteti katta o‘qituvchisi.
E-pochta: ilhom_jumayev@tues.uz
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0003-4449-5404
Iqtibos uchun: *Jumayev I.* 2025. *“Qutadg‘u bilig” dostonida Kuntug‘di va O‘zg‘urmish munosabatlarining folklor motivlariga xos talqini*”. O‘zbekiston: til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik 2: 171-180.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/SXHN3660

qanoat va ofiyat ramzi sifatida asar sujeti va kompozitsiyasini shakllantirishda juda muhim o‘rin tutadi. Moddiy boyliklar ichida yashayotgan shaxs va shunday holatdan o‘zini olib qochuvchi inson o‘rtasidagi ziddiyat voqealar rivojini harakatga keltirgani tahlillarda namoyon bo‘ladi. Doston sujetidagi ushbu holat Kuntug‘di, ya’ni xoqonga nafsning, moddiy boyliklarning zarari haqida gapirishi mumkin bo‘lgan qahramon tipining tasvirlanishini to‘la oqlaydi. Shu ma’noda, O‘zg‘urmish dostonda nafaqat hukmdorlar, balki oddiy inson uchun ham zarur bo‘lgan sabr-qanoat timsoli o‘laroq gavdalanadi.

O‘zg‘urmish kabi qanoat va ofiyatning tajassumi bo‘lgan obrazlar Yusuf Xos Hojibdan keyingi davrda adabiyotda ham ko‘plab yaratilgan. Ahmad Yassaviy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Sa’diy Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy kabi mutasavvif ijodkorlar asarlarida shohga o‘z xatti-harakati va g‘ayrioddiy fikrlari bilan favqulodda ta’sir ko‘rsatgan darvesh obrazi aks etgan.

Oyto‘ldi vafotidan keyin Kuntug‘di elig va O‘gdulmish munosabatlari tasviri ustuvorlik kasb etadi. Ular o‘rtasidagi savol-javoblar keng ijtimoiy mavzularda davom etadi. Ayni mana shu savol-javoblar asnosida Kuntug‘di O‘zg‘urmish haqida xabar topadi. O‘gdulmish eligga O‘zg‘urmishni tavsiflar ekan uning kimligi, qanday fazilatlar sohibi ekanligi haqida ilk tasavvurlar beradi:. (Qarang: diss. 24-bet)

O‘zg‘urmish xislatlariga qaramay u dunyodan yuz o‘girib, o‘ziga g‘orni makon qilgan.

Asardagi voqealar tizimining bundan keyingi rivojiga, aniqroq aytganda, Kuntug‘di va O‘zg‘urmish munosabatlari tasviriga folklor motivlari jihatdan ham yondashish mumkin.

Kuntug‘di va O‘zg‘urmish munosabatlari tasviriga folklor motivlari asosida qaralsa, voqealar rivojining shu o‘rnida xalq og‘zaki ijodining barcha turlarida kuzatiladigan qahramonlar oldida paydo bo‘luvchi mushkul vazifa va uning yechimini izlashdan iborat voqealar tizimi ko‘zga tashlanadi. Xuddi ertak qahramonlari oldida bajarilishi mushkul bo‘lgan bir vazifa paydo bo‘lib, ertak sujeti shu vazifaning bajarilishiga qaratilganidek. Bu badiiy adabiyotda “qahramonning qiyin vaziyatga tushib qolishi” motivini esga soladi. Ushbu dostonning bosh qahramoni Kuntug‘diga yuzlangan mushkul

vaziyat – O‘zg‘urmishning dunyodan yuz o‘girib, shaharni, yaqin qarindoshlarini tashlab, tog‘ga chiqib ketgani bois uni barcha choralarni ishga solgan holda saroyga kelishga ko‘ndirishdan iborat. Mana shu “mushkul vazifa” asar voqealarining keyingi rivojini belgilab beradi va turli epizodlar bog‘lanishida zanjir vazifasini bajaradi.

O‘gdulmish O‘zg‘urmish eligning taklifiga osonlikcha ko‘nmasligini yaxshi anglab turardi, chunki u o‘zidagi nuqson va gunohlardan iborat “kasalini davolatish” va nafsini yengish uchun uzlatni ixtiyor etgandi, bu maqsadidan qaytmasdi. Shu sababli oldindan uzr so‘rab hukmdorni bu yo‘ldan qaytarishga harakat qiladi. Kuntug‘di O‘zg‘urmish ta’rifini eshitib bilgach uni saroyda ko‘rishni orzulaydi va O‘gdulmishdan bu mushkul muammoga yechim topishni so‘raydi. Bu muammoga yechim ham topiladi. Unga ko‘ra, zohidning oldiga O‘gdulmish elchi sifatida borib, uni saroyga qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da olib kelishi kerak edi. O‘gdulmish O‘zg‘urmishni o‘z so‘zlariga ishontiruvchi, uni saroyga elig chorlayotganini asoslovchi vositaga muhtojlik sezadi. Bu esa sujetga maktub detali kiritilishini taqozo qiladi. Bu o‘rinda maktub detaliga bo‘lgan zaruriyat quyidagicha badiiy asoslanadi:

1. Oddiy odam maktub yozayotgani yo‘q. Qolaversa, bilimli hushyor va tetikligi xalq orasida ovoza bo‘lgan dono (buni dastlab Oyto‘ldi, keyin O‘gdulmishning Kuntug‘di haqidagi mulohazalari tafsilotlari orqali anglash mumkin). Ya’ni eligning istagi jiddiy.

2. O‘zg‘urmish – zohid. U dunyodan qo‘l tortgan va nafsini jilovlash bilan ovvora bo‘lgan inson. Uni yana qayta saroyga, odamlar orasiga olib kelish quruq gap-so‘zlar bilan amalga oshmasligi kunday ravshan.

3. Eligning farmoni – yozma tarzda yetib borishi o‘ziga yarasha zalvorli, ya’ni “qara көңlin avlar” – avom ko‘nglini ovlash bilan birga “tүgүlmish көңүlni yazar”, ya’ni har qanday tugulgan, yo‘l topish qiyin bo‘lgan ko‘ngillarga yo‘l topuvchi vositadir.

4. Elig ham ezgu so‘z va ezgu amalni keng yoyishni o‘ziga shior qilgan hukmdor. Buning uchun esa unga yonida maslahatchi va o‘z o‘rnida to‘g‘ri maslahat bera oladigan xodimlarga muhtoj.

Bu maktub davlat rahbarining, davlat ishlarini yaxshilanishini koʻzda tutayotgan insonning maktubi va zohidning bu jarayonlarga qoʻshilishi bilan davlat ishlarining yaxshilanishiga umidvor boʻlgan odamning maktubi. Elig ham maktubni shu maqsadda yozishga kirishadi. Bu nuqtada Kuntugʻdi obraziga xos boʻlgan xalqparvarlik xislatlari tasvirini ham koʻrish mumkin, chunki u nafaqat oʻzini, oʻz navbatida xalq manfaatini ham koʻzlamoqda. Elig Oʻzgʻurmishning ezgu fazilatlari, odob-axloqi va maʼnaviy kamolotidan xalqni bahramand etish, uning bilimlari natijasida el-u yurtni yanada obod qilishni koʻzlamoqda. Shu maqsad yoʻlida elig Oʻzgʻurmishga maktub yozadi.

Дават қулды кағаз, битиди битиг,
Битиг бирлә этти ишингә этиг.
Байат аты бирлә сөзүг башлады,
Төрүтгән, игидгән, кэчүргән, тэди.

Mazmuni:

Davot va qogʻoz soʻradi, maktub yozdi,
Maktub bilan ishiga zamin hozirladi.
Xudo oti bilan soʻzni boshladi,
Yaratgan, parvarish qilgan, kechirgan, dedi

(Қутадғу билиг, 1972; 500-501).

Kuntugʻdining maktubni bu tarzda boshlashida barcha ishda Tangriga umidvorlik va oʻzigagina tavakkal qilish lozimligini uqtirish maqsad qilingan. Bu umidvorlikning zamirida esa ulkan musulmon falsafasi mavjud.

Kuntugʻdi Oʻzgʻurmishni saroyga shunchaki chorlamaydi, balki uni ishontirish (yaʼni mushkul vaziyatni hal etish) uchun bir qator asosli mulohazalarini yozib yuboradi.

Keyingi misralarda u kelmasa elig ham zohid ham hech narsa yutqazmasligi bayon qilingan. Lekin har ikkalasi ham oʻz manfaati uchun ayri harakat qilsa, unda kim yutqazadi? Albatta, xalq. Xalqparvar eligning esa asl maqsadi xalqqa foyda keltirishdan boshqa narsa emas.

Zohidning uzlatdagi asosiy ishi ibodat, parxez hisoblanadi. Xoʻsh, uning qilayotgan toat-ibodatidan manfaati nima? Tinimsiz riyozat va tinimsiz toat-ibodat orqali Haq roziligiga erishish. Elig maktubda zohid dunyoqarashidagi ayni jihatni ham rad etadi. Eligning nuqtayi nazaricha, Haq sevinchiga faqat roʻza yoki namoz bilan erishib boʻlmaydi. Buning uchun

musulmonlar sevinchiga ham erishmoq kerak. Mana shu haqiqiy din yo‘lidir deydi. Qisqasi, Kuntug‘di O‘zg‘urmishga nisbatan dilida bor gaplarni maktubda bitib, O‘gdulmishdan berib yuboradi. O‘gdulmishga qolgan mulohazalarini og‘zaki yetkazishni ham tayinlaydi. Shu tariqa elig “mushkul muammo” yechimiga umid qiladi.

Zohid taklifni rad etar ekan hukmdor uni tinch qo‘ymasdan yana elchi yuborishini oldindan biladi va qarindoshining yana qayta tashrifining oldini olish ilinjida maktubga javoban ba’zi shartlarini ma’lum qiladi. Shart qo‘yish motivi ham xalq og‘zaki ijodining ko‘plab janrlarida kuzatiladi. Odatda ertak yoki doston qahramonlariga bajarib bo‘lmas, aql bovar qilmaydigan topshiriqlar berilib, ularning matonati va shijoati sinovdan o‘tkaziladi. O‘zg‘urmish ham eligga bajarib bo‘lmas shartlarni qo‘yish asnosida uning aql-zakovatini, sabr-bardoshini va maqsadi qat’iy yoki yo‘qligini aniqlashni maqsad qiladi.

Kuntug‘di O‘zg‘urmish yozgan maktub va aytib yuborgan mulohazalari orqali umumiy bir xulosaga keladi va zohidni g‘aflat uyqusidan butkul “удымыш турур”, ya’ni uyg‘ongan deb tushunadi va “бизиң көңлүмиз өлди”, ya’ni bizning ko‘ngilimiz o‘lgan, u endi nafsga “болға болун” – butkul tutqundir deya o‘zini malomat qiladi. Zohidning qanchalik haq ekanligini va uni tanlagan yo‘lidan qaytarib bo‘lmasligini tushunib yetadi.

Elig O‘zg‘urmishning kelishini va u bilan diydor ko‘rishishni shunchalar xohlaydiki, agar u kelmasa o‘zi borishga ham tayyor. Zohid aql nuri bilan uning qalbidagi nopokliklarni tozalashi, unga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi ustoz maqomida bo‘lishini istaydi va shu maqsadda yana vazirini zohid oldiga jo‘natadi. Bu gal O‘gdulmish zohid oldiga o‘zgacha maqsad bilan yo‘l oladi. O‘zg‘urmish O‘gdulmishning keltirgan taklifini eshitib xursand bo‘ladi.

Мусулман қадашқа мусулман қадаш
Зийарат қылур-оқ, э көңли түдәш.
Бу сөзкә эгилдим, бэрүр-мэн бойун,
Зийарат қылайын аңар мэн бу күн.

Mazmuni:

Musulmon qarindoshni musulmon qarindosh
Albatta ziyorat qiladi, ey ko‘ngli munosib.
Bu so‘zga egildim, bo‘yin beraman,

Bu kun men uni ziyorat qilayin(Қутадғу билиг, 1972; 500-501).

Zohid eligning taklifini mamnuniyat bilan qabul qiladi. U bu uchrashuvni musulmon insonning oʻz birodarini ziyorat qilish deb biladi va bunga sidqidildan rozilik beradi.

Мунуңда оза бармадым мэн аңар,
Өз асғы тиләр эрди мэндин сыңар.
Аны қодты, тутты көнилик йолын,
Кирур-мэн көниликкә, көндүм тилин.

Mazmuni:

Bundan oldin men uning huzuriga bormadim,
(Chunki) u mendan oʻz manfaatini koʻzlar edi.
U (niyat)ni qoʻydi, toʻgʻri yoʻlni tutdi,
Men toʻgʻrilik (yoʻli)ga rozi boʻlaman, tilimda iqror boʻldim(Қутадғу билиг, 1972; 740).

Oʻzgʻurmish eligning taklifiga oldinroq rozilik bermaganining sababi sifatida uning oʻz maqsadini koʻzlaganini, unda endi ezgulikni maqsad qilgani oydinlashganini koʻradi.

Muxtasar aytganda, dostonda zohidning elig taklifini qabul qilishi ikki sabab bilan izohlanadi: birinchisi shuki, amir xizmat haqidagi taklifidan voz kechib, zohid haqidagi dunyoqarashini toʻgʻriladi; ikkinchisi shuki, taqvo va e'tiqodda mustahkam boʻlgan zohidning ma'rifatga yoʻgʻrilgan nasihatlari xalq uchun manfaatlidir. Ayni shunday holatni mutasavvif Jaloliddin Rumiy quyidagicha izohlaydi: "Olim agar amirlar soyasida olim boʻlishni oʻylamasa, uning bilimi ibtido va intihoda Olloh uchun qilingan boʻladi. Uning tutgan yoʻli va koʻrsatgan faoliyati savoblidir. Chunki yaratilishi shundaydir, baliq suvdan boshqa yerda yashay olmaganidek, u ham bundan oʻzgasini qilolmaydi. Uning qoʻlidan kelgani shu. Bunday bir olim harakatlarini boshqarib yoʻlga solib turgan narsa aqldir. Hamma undan qoʻrqadi va insonlar ba'zan bilib, ba'zan bilmasdan u taratgan nurdan bahra oladilar. Xullas, bunday bir olim amir huzuriga borsa, zohiran u ziyorat qilgan, amir esa ziyorat qilingan boʻladi. Ammo amir olimdan hamma vaqt yuksalishga chorlovchi bir quvvat-yordam oladi, olimning esa amirga ehtiyoji yoʻq, chunki u badavlatdir, nur-sochayotgan quyosh kabidir. Ishi ta'masiz koʻmak bermoq, ehson etmoqdir"

[Жалолиддин Румий, 1997; 10].

O‘zg‘urmish elig oldiga kech tushganda boradi. U kunduzi odamlarning ko‘ziga ko‘rinmaslikka harakat qiladi. Zohid bu holatni quyidagicha izohlaydi:

Киши көрсә күндүз мэни соңраға,
Өзин отқа атға мэни сөзләгә.

Mazmuni:

Kunduz odam(lar) ko‘rsa, meni g‘iybat qiladi,
O‘zini o‘tga tashlaydi, meni so‘zlaydi[Қутадғу билиг, 1972; 742].

Odamlar zohidni ko‘rib g‘iybat qilishlarini va do‘zax o‘tida uni deb o‘zgalar yonmasligini istaydi. O‘zg‘urmish va Kuntug‘di o‘rtasida dunyoning bevafoligi, dunyo bilan qanday muomala qilmoq haqida uzun suhbat bo‘lib o‘tadi. O‘zg‘urmish Kuntug‘diga suhbat davomida o‘lim haq ekanligni ham bot-bot eslatib boradi:

Бу қывчақ қовы дунйа кэчки ажун,
Нэчә бэг қарытты қарымас өзүн.

Mazmuni:

Bu mash’um, g‘ovak dunyo, ko‘hna olam,
Qancha(dan qancha) beg(lar)ni qaritdi, o‘zi qarimaydi[Қутадғу билиг, 1972; 760].

Zohid eligni “отачы”, ya’ni tabibga qiyos etadi, chunki uning xalqi uning bemorlaridir. Ularning ba’zisi kuch-quvvatdan qolgan, ba’zisi och-yalang‘och, ba’zisi esa qayg‘u-alamdan siqilgan bo‘ladi. Ularning barchasiga elig kerakli dori-darmon ulashishi shart. Agar bemorlarning dardiga kerakli shifoni qilmaydigan bo‘lsa, u dunyoda yagona Alloh bularning barchasiga hisob so‘raydi.

Kuntug‘di va O‘zg‘urmish suhbatidagi e’tiborga molik jihatlardan biri zohidning dunyo bilan munosabatga oid muhim tavsiyalarni ham berishidir. O‘zg‘urmish, dastlab, eligni nafs bilan shiddatli jang qilishga chorlaydi, chunki nafs eng yomon dushman bo‘lib, unga yaxshilik qilinsa, javobi yomonlik, unga vafo qilinsa, evazi jafo bo‘lishi uqtiriladi. Nafsni xo‘rlash orqali jon rohat topadi va bilim beg, zakovat esa xon bo‘lib insonni farog‘atga yetaklashi aytiladi.

O‘zg‘urmish eligning raiyat oldidagi uch haqini ham eslatadi. Bular quyidagilar:

– Oltin-kumush sofligini va uni sinashni doimo nazorat

qilish;

– Xalqqa to‘g‘ri siyosat yuritib, ular o‘rtasidagi zulmni bartaraf etish;

– Hammayo‘llarnitinchtutib,qaroqchivayo‘lto‘sarlardan tozalash.

O‘zg‘urmish, shuningdek, eligga raiyat uzra uch haqi borligini ham eslatishni lozim deb biladi. Bular:

– Beg yorliqlarini va unda keltirilgan barcha shartlarni bajarsinlar;

– Xazina haqini ushlamasinlar, yani o‘z vaqtida soliqlarni to‘lasinlar;

– Beg dushmaniga dushman, do‘stiga do‘st bo‘lsinlar.

Xullas, Kuntug‘di va O‘zg‘urmish o‘rtasida mana shunga o‘xshash masalalarda suhbat bo‘lib o‘tadi. Shundan so‘ng dostonda Kuntug‘di va O‘zg‘urmish obrazlari o‘rtasidagi munosabatlar tasviri deyarli yakuniga yetadi. Voqealar rivojining boshida yuzaga kelgan “mushkul muammo” xizmat haqidagi taklifni ziyorat, ma’rifat ulashish haqidagi iltimos bilan almashtirish orqali hal etiladi. O‘gdulmish vositasida Kuntug‘di ham, O‘zg‘urmish ham o‘z maqsad-muddaosiga yetishadi.

O‘zg‘urmishning saroyga taklif etilishi va u bilan bog‘liq boshqa lavhalarning folklor motivlari bilan aloqadorligi masalasini professor Boqijon To‘xliyev o‘z tadqiqotlarida batafsil tadqiq etgan[Тўхлиев, 2013]. E’tiborli tomoni shundaki, olim O‘zg‘urmishning saroyga taklif etilishi va shu bilan bog‘liq lavharlarni folklor asarlarda tez-tez takrorlanuvchi kurash jarayonlariga ham o‘xshatadi. Faqat bu kurash og‘izda, ya’ni so‘z orqali bo‘lib o‘tishini aytadi. Asar sujetining bu qismlarida kurash munozara qilmoq shaklida namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi[Тўхлиев, 1991; 28]. Ayni vaziyat asar sujetiga “uchlantirish” deyiluvchi yana bir motivning kiritilishiga zamin yaratgan.

Adabiyotlar

Тўхлиев Б. *Юсуф Хос Хожиб ва туркий халқлар фольклори.* – Toshkent: BAYOZ, 2013.

Тўхлиев Б. Юсуф Хос Хожибнинг “*Қутадғу билиг” асари ва туркий фольклор.* Фил. фан. док-ри. дисс. –

Тошкент: 1991. – Б. 28.

Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадур. Таржимон Улуғбек Ҳамдам. – Тошкент, 1997. – Б. 9-10.

Юсуф Хос Ҳожиб. *Қутадғу билиг. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф*. Нашрга тайёрловчи Қаюм Каримов. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 742.

Jumaev I. H. *Meaning and interpretation of the word “Tushun”*// European Scholar Journal (ESJ). ISSN: 2660-5562. Volume 3 ISSUE 3/2022, SJIF: 7.9 – B. 39 – 41. https://www.scholarzest.com

Jumayev I. H. *Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida bahor tasviri.* Namdu axborotnomasi, (ISSN:2181-0427). – Namangan, 2024. – № – 3. – B. 486 – 490. (10.00.00. 30.09.2022. № 325/6).

Содиқов Қ. *“Қутадғу билиг”нинг тил хусусиятлари.* -// Ўлмас обидалар. Тошкент: Фан, 1990. – 229 – 306 б.

Каримов Қ. «*Кутадғу билиг»нинг тузилиши ва вазни.* Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари, 2 китоб. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1961.

INTERPRETATION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN KUNTUGDI AND UZGURMISH IN THE EPIC POEM «KUTADGU BILIG» BASED ON FOLKLORE MOTIFS

Ilhom Jumayev[1]

Abstract

Each character in Yusuf Khos Hajib’s epic poem «Kutadgu Bilig» has its own symbolic meaning. The relationship between them also serves to reflect a certain idea. The following article analyzes the relationship between the king and the ascetic

[1]*Jumaev Ilhom* – Senior lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature, Termez University of Economics and Service. Doctor of Philosophy (PhD) in Philology.
E-mail: ilhom_jumayev@tues.uz
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0003-4449-5404
For citation: J*umaev I.* 2025. *“Interpretation of the relationship between Kuntugdi and Uzgurmish in the epic poem "Kutadgu Bilig" based on folklore motifs”.* Uzbekistan: language and culture. Folklore. Dialektology 2: 171-180.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/SXHN3660

Kuntugdi and Uzgurmish based on folklore lines. This epic, which is one of the didactic works that embody the concepts of time and space in Uzbek literature, is one of the few sources that has not lost its value even in the process of globalization. The folklore motifs used in the epic play a special role in the path of the rise of the modern person as a person. At a time when the scope of application of folklore models among the people is narrowing, the folklore interpretation of this work remains relevant not only for a wide readership, but also for specific writers.

Key words: Yusuf Khos Hajib, epic poem «Kutadgu Bilig», Kuntugdi, Uzgurmish, folklore, problem, knot, solution.

References

Тўхлиев Б. *Юсуф Хос Хожиб ва туркий халқлар фольклори.* – Toshkent: BAYOZ, 2013.

Тўхлиев Б. Юсуф Хос Хожибнинг “Қутадғу билиг” асари ва туркий фольклор. Фил. фан. док-ри. дисс. – Тошкент: 1991. – Б. 28.

Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадур. Таржимон Улуғбек Ҳамдам. – Тошкент, 1997. – Б. 9-10.

Юсуф Хос Ҳожиб. *Қутадғу билиг. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф.* Нашрга тайёрловчи Қаюм Каримов. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 742.

Jumaev I. H. Meaning and interpretation of the word “Tushun”// European Scholar Journal (ESJ). ISSN: 2660-5562. Volume 3 ISSUE 3/2022, SJIF: 7.9 – B. 39 – 41. https://www.scholarzest.com

Jumayev I. H. *Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida bahor tasviri.* Namdu axborotnomasi, (ISSN:2181-0427). – Namangan, 2024. – № – 3. – B. 486 – 490. (10.00.00. 30.09.2022. № 325/6).

Содиқов Қ. “Қутадғу билиг”нинг тил хусусиятлари. -// Ўлмас обидалар. Тошкент: Фан, 1990. – 229 б.

Каримов Қ. *«Кутадғу билиг»нинг тузилиши ва вазни.* Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари, 2 китоб. –Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1961.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com